



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 31 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli20	
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili26	
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



O'ZBEKISTONDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA DAVLATNING ROLI

Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich

BMA magistranti

baxrimurodjuraqulov2806@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi ish bilan bandligini ta'minlashda davlatning roli, uning asosiy vazifalari va ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan mehnat bozorini tartibga solish choralari, ayniqsa, mehnat qonunchiligi, iqtisodiy va institusional dasturlar orqali bandlikni rag'batlantirish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Maqolada tahliliy natijalar asosida mavjud muammolar aniqlanib, samarali davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, davlat siyosati, mehnat bozori, ish o'rinlari, iqtisodiy islohotlar, mehnat qonunchiligi, davlatning roli.

Abstract: This article analyzes the role of the state in ensuring employment of the population, highlighting its key functions and mechanisms of influence. It examines state measures to regulate the labor market, particularly methods of promoting employment through labor legislation, economic, and institutional programs. The reforms being implemented in Uzbekistan are also analyzed based on statistical data. Based on the analytical results, the article identifies existing problems and proposes key directions for effective public policy.

Key words: employment of the population, state policy, labor market, job creation, economic reforms, labor legislation, role of the state.

Аннотация: В данной статье анализируется роль государства в обеспечении занятости населения, его основные функции и механизмы воздействия. Рассмотрены меры регулирования рынка труда, осуществляемые государством, в частности, методы стимулирования занятости через трудовое законодательство, экономические и институциональные программы. Также проведен анализ реформ, реализуемых в Узбекистане, на основе статистических данных. На основании аналитических результатов в статье выявлены существующие проблемы и предложены основные направления эффективной государственной политики.

Ключевые слова: занятость населения, государственная политика, рынок труда, рабочие места, экономические реформы, трудовое законодательство, роль государства.

KIRISH

Aholini ish bilan ta'minlash masalasi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda kambag'allik, ijtimoiy norozilik, mafkuraviy muammolar va migrasiya kuchayishi kuzatiladi. Shu bois, davlatlar ushbu muammoni hal qilish uchun qator strategik chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Har bir davlatning ish bilan bandlik sohasidagi siyosati bir biridan farqlanib, unga turli omillar ta'sir qilishi mumkin. Bu omillar orasida eng ta'sirchani shu davlatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonda keyingi yillarda ish bilan bandlikni ta'minlash sohasida tizimli islohotlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2020 yil 20 oktyabrda qabul qilingan "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonun davlatning ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirishni kafolatlovchi asosiy xujjat



hisoblanadi va uning 2-bob 6-moddasida Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralarini ko'rish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish, holi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish, aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash, ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish kabilardan iborat ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan [1].

Bugungi kunda yaratilgan mehnat bozori infratuzilmasi, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, fuqarolarni kasbga qayta tayyorlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi davlat siyosatlari aholining ish bilan bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, 2023 yilda mamlakatda 1,2 milliondan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan bo'lib, ularning 43% davlatning bevosita ishtirokida tashkil etilgan [2]. Bu aholining mehnat bozoridagi faolligini oshirishda davlat siyosati hal qiluvchi o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholining ish bilan bandligini ta'minlash har doim ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning rivojlanib borishi natijasida ish bilan bandlik tarkibining o'zgarishi, mehnat bozorida yangi kasblarga ehtiyojning ortishi va an'anaviy kasblarning eskirib borayotganligi global muammolardan biriga aylanayotganligini ko'rsatmoqda va bu borada yanada ko'proq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kungacha ushbu masalalarda ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, jumladan xorijiy olimlardan, aholini ish bilan bandligi ta'minlashda mavjud muammolar echimlari bo'yicha B.D. Breev [3], nostandart ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy yondashuvini E.V.Maslova [4], mehnat bozori va aholi ish bilan bandligini tartibga solish masalalarini K.G.Kyazimov [5], demografik o'zgarishlarining aholini ish bilan ta'minlashga ta'siri bo'yicha tadqiqotlarni P.Ge, W.Sun va Z.Zhao [6] hamda COVID-19 pandemiyasi davrida o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning davomiyligi va raqobatdoshlik tahlillari bo'yicha J. Grashuis [7]lar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Mahalliy olimlardan akademik Q.X,Abduraxmonov [8] zamonaviy mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli haqida nazariy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan va o'z ilmiy ishlarida natijalarni batafsil bayon etgan, D.A. Nasimov [9] raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishni, S.A. Bozorova [10] aholining ish bilan bandligini oshirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasining holatini, A.B. Irmatova [11] ayollarni intellektual mehnat bilan band bo'lish muammolarini, I.A.Bakieva [12] ishsizlikni kamaytirishda aholini tadbirkorlikka kasbiy tayyorlash masalalarini tadqiq etib kelmoqda.

Bundan tashqari Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotida ta'kidlanishicha "2025 yil – O'zbekistonda "formallashtirish" va ijtimoiy muhofazani kuchaytirish maqsadida boshlangan loyihalar doirasida 300 000 nafar norasmiy ishchilarga jamiyatda to'liq huquq hamda ijtimoiy kafolatlar tarqatiladi. Bu davlatning tarkibiy muammolarni hal etish yo'li ekanini ko'rsatadi [13].


Ilmiy manbalarda keltirilgan fikr va mulohazalarga asoslanib, aholini ish bilan bandligi ta'minlash borasidagi mavjud muammolarni echish va bu bo'yicha statistik tahlillarni amalga oshirgan holda mavjud ularni hal etishning tashkiliy, iqtisodiy va institusional jihatlarini ilmiy jihatdan yanada tadqiq etish, shuningdek davlatning rolini kuchaytirish orqali innovasion yondashuvlarni ishlab chiqish lozimligi haqida xulosa qilish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiy voqelik va jarayonlarni o'rganishning turli ilmiy usullari: iqtisodiy tizimlarni tahlil etishga nisbatan dialektik yondashuv, qiyosiy va tizimli tahlil, bazaviy hisob-kitoblar va statistik guruhlash usullari qo'llandi. Tadqiqot ishining axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari hamda qator ommaviy axborot vositalarining internet saytlari materiallaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mintaqada aholisi sonining tez sur'atlarda oshib borayotganligi bilan qo'shni davlatlardan farqlanib turadi. O'z navbatida aholi soning oshib borishi mehnat bozorida davlat tomonidan amaliy choralarni ko'rishni talab etadi (1-rasm).



1- rasm. O'zbekiston Respublikasining 2022-2024 yillar uchun mehnat resurslarining tahliliy balansi, [2].

Rasmdan ko'rib turganimizdek, o'rganilayotgan davrda O'rtacha doimiy aholi soni yil sayin barqaror o'sib bormoqda. 2022 yildan 2024 yilgacha 1 523 ming kishiga yoki taxminan 4,3% ga oshgan. Bu o'zgarish tendensiyasi respublikada asosan tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Shu o'rinda jami mehnat resurslari ham yildan-yilga o'sib bormoqda. 2022–2024 yillar oralig'ida ular soni 502 ming kishiga yoki taxminan 2,6% ga oshgan. Bu o'sish mehnatga layoqatli aholi soni ortishi, shuningdek, ish bilan band bo'lishi mumkin bo'lgan aholining ko'payishidan dalolat beradi. Iqtisodiy faol aholi soniga keladigan bo'lsak, bu toifadagi aholi soni deyarli o'zgarmagan. 2022 yilda 15071 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda ozroq pasayib, 2024 yilda yana yuqorilab 15096 ming kishini tashkil etgan. Bu esa mehnat bozorida ishsizlik, yashirin ish o'rinlari, aholining xorijga ishlash uchun norasmiy chiqib ketishi kabi ayrim muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Umuman olganda demografik o'sish mehnat bozorida potensial imkoniyat yaratmoqda, lekin shu bilan birga ushbu imkoniyatlar to'liq ishlatilmayotgani ko'rinmoqda.

Keyingi rasmda respublikadagi mavjud mehnat resurslari tarkibini ko'rib chiqishni maqsad qildik, chunki bunday tahlil aholining iqtisodiy faolligini oshirishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan yo'nalishlarni belgilab berishga imkon beradi (2-rasm).



2- rasm. O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari tarkibi, 2024 yil [2].



2024 yilda O'zbekistonda umumiy mehnat resurslari soni salkam 19 million nafarni tashkil etgan. Jami mehnat resurslarining 79,5% qismini esa iqtisodiy faol aholi tashkil etadi. Bu toifaga ish bilan ta'minlangan hamda ish izlayotgan, mehnatga tayyor aholi kiradi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda mehnat resurslarining katta qismi ish faolligiga ega ekanini ko'rsatadi. O'rganilayotgan davrda ish bilan band aholi umumiy mehnat resurslarining 75% ga yaqinini tashkil etgan. Ular orasida 1377,6 ming kishi esa xorijda ishlayotganlardan iborat bo'lib, bu mehnat migrasiyasining salmoqli ekanini, ayniqsa ishchi kuchi eksport qilish amaliyoti keng ko'lamda ekanini anglatadi. Shu bilan birga mehnat resurslari tarkibidagi 836,4 ming kishi ishsizlar hisoblanadi va respublikada ishsizlik darajasi 5,5 % ni tashkil etgan. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy nafaol aholi ulushi 24,5 %ni tashkil qilgan.

Berilgan rasmdagi ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, respublikada mehnat resurslarining asosiy qismini iqtisodiy faol aholi tashkil etmoqda, bu esa mamlakatning ishchi kuchi salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi, biroq xorijda mehnat faoliyatini olib borayotganlar soni yuqori yuqori bo'lib, ularning ichki bozorda band qilinishini ta'minlash iqtisodiyot uchun qo'shimcha rivoj drayveri bo'ladi degan fikrdamiz. Shu bilan birga mehnat bozorida ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va kasbga qayta tayyorlash dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy nafaol aholini faol mehnat bozoriga jalb qilish orqali mehnat resurslaridan to'liq foydalanish imkoniyati yuzaga keladi deb hisoblaymiz.

Davlatning ish bilan bandlik sohasidagi siyosatini amalga oshirish doirasida mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholi toifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholi toifalari – keksa yoshdagilar, nogironligi bo'lganlar, ayollar mavjud. Ularning mehnat qilish huquqining kafolatlari xalqaro hujjatlarda ham, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan [8].

Umuman olganda dalat tomonidan aholini ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida ishlashni istagan aholi uchun bir nechta yo'nalishlarda xizmatlar ko'rastiladi. Bu yo'nalishlardagi barcha xizmatlar faol va nafaol siyosat doirasida bo'lib, 2024 yilda aholiga davlat tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar turlari bilan 1-jadvalda tanishishimiz mumkin.

1-jadval. 2024 yilda aholiga davlatning ish bilan bandlik siyosati doirasida ko'rsatilgan xizmatlar turlari [2].

Hududlar nomi	Jami ko'rsatilgan xizmatlar	Ishga joylashganlar	Kasbga o'qitilganlar	Ajratilgan subsidiyalar	Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar soni
Jami	151429	94905	55604	144	776
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13104	9381	3708	1	14
Andijon	12792	7900	4870	0	22
Buxoro	11260	7312	3685	64	199
Jizzax	8640	5320	3271	8	41
Qashqadaryo	13529	8351	5138	20	20
Navoiy	6255	3723	2528	0	4
Namangan	12656	7780	4835	28	13
Samarqand	12858	9607	3176	0	75
Surxondaryo	13052	7109	5819	0	124
Sirdaryo	6154	3618	2477	0	59
Toshkent v.	10391	5502	4793	6	90
Farg'ona	11592	6919	4656	1	16
Xorazm	12353	7148	5116	1	88
Toshkent sh.	6793	5235	1532	15	11

1-jadvaldan ko'rinadiki, 2024 yilda O'zbekistonda mehnat sohasida amalga oshirilgan ishlar ijobiy samaralar bermoqda. Respublika bo'yicha aholini ishga joylashtirish, kasbga qayta o'qitish, subsidiyalar ajratish va ishsizlik nafaqasi tayinlash borasida ishlar amalga oshirilgan. Respublika bo'yicha umumiy 151429 kishiga xizmatlar ko'rsatilgan. Eng yuqori faollik Samarqand (12858), Qashqadaryo (13529), Andijon (12792) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (13104)da kuzatilgan. Eng kam xizmat Navoiy viloyati (6255) va Toshkent shahar (6793)da qayd etilgan.



O'rganilayotgan 2024 yilda mehnat organlari orqali 94905 nafar kishi ishga joylashtirilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika bo'yicha umumiy xizmatlarning 62,7% ni tashkil etgan. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (9607 nafar), Qoraqalpog'iston (9381 nafar), Qashqadaryo (8351 nafar) viloyatlariga to'g'ri kelgan, biroq Navoiy (3723 nafar), Sirdaryo (3618 nafar), Jizzax (5320 nafar) viloyatlarida eng past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Kasbga qayta o'qitish ham davlatning ish bilan bandlikni ta'minlash sohasidagi faol siyosati hisoblanib, mehnat bozorida talabga ega bo'lish uchun muhim omildir. Jadvaldan respublikada jami 55 604 kishi kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tganligini ko'rishimiz mumkin. 2022–2023 yillarda ham 89 ta kasb-hunarga o'qitish markazlari orqali 180 mingdan ziyod fuqaro qayta tayyorgarlik kurslarini tamomlagan [14] hamda ularning 72% ishga joylashgan. Davlat bu markazlar faoliyatini subsidiyalash orqali mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga erishgan.

Shu bilan birga davlat tomonidan passiv siyosat ham amalga oshirilib, unda ishsizlarga ishsizlik nafaqalari to'lash choralari amalga oshiriladi. Jumladan 2024 yilda respublika bo'yicha jami 776 kishiga ishsizlik nafaqasi tayinlangan.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan bir qatorda davlat tomonidan yangi ish o'rinlarini tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatdan kelib chiqib, hududlarda tashkil etilayotgan yangi ish o'rinlari asosan egallagan mutaxassisliklariga muvofiq ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga, ayollar va nogironligi bo'lgan aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj toifalarini ishga joylashtirish uchun ajratiladi.

2022–2024 yillarda amalga oshirilgan "Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar daftari" dasturlari orqali 400 ming nafardan ortiq aholi o'zini-o'zi band qilganlar qatoriga kirdi [15]. Ushbu dasturlar aholining faol mehnat faoliyatiga jalb etilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat tomonidan subsidiya, imtiyozli kredit va soliq imtiyozlarini belgilash mexanizmlari orqali tadbirkorlikka keng yo'l ochildi. Masalan, 2023 yilda "Yoshlar daftari" orqali 320 mingga yaqin yoshlarga 1,2 trln so'mlik mablag' ajratilgan. Bu mablag'lar asosida ular o'z biznesini boshlab, yangi ish o'rinlari yaratgan.

O'zbekiston fuqarolarini qonuniy va xavfsiz mehnat migrasiyasiga yo'naltirish maqsadida, davlat Tashqi mehnat migrasiyasi agentligi orqali Germaniya, Polsha, Koreya, Rossiya kabi davlatlar bilan ikki tomonlama kelishuvlarni yo'lga qo'ydi. 2023 yilda 157 ming fuqaro rasmiy kanallar orqali xorijda ish bilan ta'minlangan [16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- davlatning faol ishtiroki mehnat bozorida tizimli rivojlanishga olib kelmoqda. Xususan, hududiy tengsizlikni kamaytirish, aholi qatlamlarini (ayollar, yoshlar, nogironlar) ishga jalb qilish borasida samarali echimlar ishlab chiqilmoqda;
- ishsizlik darajasi pasaymoqda, jumladan, ishsizlik 2021 yilda 9,6% bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 8,1%ga, 2024 yilda esa 5,5 %gacha tushdi. Bu natija asosan davlat dasturlari ta'sirida yuzaga keldi [17].

Biroq shu bilan birga muammoli holatlar ham mavjud bo'lib, tashkil etilayotgan ish o'rinlari ko'p xolatlarda vaqtinchalik va kam daromadli sohalarga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga hududlararo bandlikda nomutanosiblik hamda norasmiy sektordagi ish bilan bandlik ulushining yuqoriligi kuzatiladi.

Umumi xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, aholini ish bilan ta'minlashda davlatning roli katta. Davlat mehnat bozorida faol ishtirok etganda, iqtisodiy o'sish bilan birga, ijtimoiy adolat ham ta'minlanadi. Bu nafaqat ish o'rinlari yaratish, balki aholini raqobatbardosh kasblarga tayyorlash, tadbirkorlik muhitini shakllantirish, hududiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlash kabi yo'nalishlarda ham namoyon bo'ladi. Davlat siyosatini raqamlashtirish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish, yashirin bandlikni rasmiylashtirish kelgusidagi asosiy vazifalar bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг 20.10.2020 йилдаги ЎРҚ-642-сон "Аҳоли бандлиги тўғрисида"ги қонуни. <https://lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги маълумоти. <https://mehnat.uz>
3. Бреев Б.Д., Жаромский В.С., Галецкий В.Ф. Оценка масштабов потенциальной безработицы на основе методики «Кривой Филлипса» //Моделирование рыночных отношений и социальная политика: Отв.ред. А.Ю. Шевяков. - М.: ЦЭМИ РАН, 1993. С.82- 102
4. Маслова Е.В. Государственное регулирование нестандартной занятости: современный подход // Экономика труда. – 2018. – Том 5. – № 4.
5. Кязимов К.Г. Регулирование рынка труда и занятости населения. – Directmedia, 2017. – 203 с.
6. Ge, P., Sun, W., & Zhao, Z. (2020). Demographic Changes and Their Impact on Employment in China. Journal of Population Economics, 33(2), 455–478. <https://doi.org/10.1007/s00148-019-00742-8>
7. Grashuis, J. (2021). The sustainability and competitiveness of self-employment during the COVID-19 pandemic. Journal of Small Business Management, 59(4), 717–731. <https://doi.org/10.1080/00472778.2021.1883038>



8. Абдурахмонов Қ. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: “FAN”, 2019. – 544 б.
9. Насимов Д.А. Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида иш билан бандликнинг замонавий шакллари// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 4, июль-август, 2020 йил.
10. Бозорова С.А. Аҳолининг иш билан бандлигини оширишда хизмат кўрсатиш соҳаларининг ўрни // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 3 (00035), 2018. – 1-7 б. 11.
11. Ирмаева А.Б. Интеллектуал меҳнатни ривожланиши аёлларни иш билан бандлигига таъсири // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” Илмий электрон журналы. № 1 (00045), 2020. – 93-100 б.
12. I.A. Bakiyeva. Ishsizlikni kamaytirishda tadbirkorlik faoliyatiga kasbiy tayyorlashni takomillashtirish. (Monografiya).-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2025, 164 bet.
13. ILO/UN/World Bank. Global Accelerator on Jobs and Social Protection, April 2025 (ilo.org).
14. Касб-хунарга қайта тайёрлаш марказлари фаолияти бўйича ҳисобот, 2023 йил.
15. “Ёшлар дафтари” жорий дастури таҳлили. – <https://yoshlar.gov.uz>
16. Ташқи меҳнат миграцияси агентлиги: расмий статистика. – <https://migration.uz>
17. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, меҳнат бозори ҳолати, 2023 йил. – <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
